

“DEVONI AMIR UMARXON” NASHRLARIDAGI AYRIM O`ZIGA XOSLIKLAR

Namangan davlat universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yoʻnalishi 2-kurs magistranti

Nurmatova Madina Fayzullo qizi

Annotatsiyasi

Mazkur maqolada Amiriy qalamiga mansub “Devoni Amir Umarxon” ning turli nusxa va nashrlari oʻrtasidagi ayrim matniy tafovutlar, oʻxshashliklar, devonda oʻzidan oldingi salaflaridagi anʼanaviylikni munosib davom ettirganligi, har ikki tildagi janrlar koʻlami yoritilgan.

Tayanch soʻzlar: anʼanaviylik, nusxa, matniy tadqiq, gʻazal, muxammas, tuyuq

Annotation

In this article, some textual differences and similarities between different copies of “Devoni Amir Umarkhan” written by Amiri, the fact that the devan continued the tradition of its predecessors, and the scope of genres in both languages are highlighted.

Key words: traditionalism, copy, textual research, ghazal, mukhammas, tuyuq

Oʻtmishda barcha shoir ham devon tuzish darajasiga koʻtarila olmagan. Sohibidevon Amiriyning turli tazkira va bayozlarda tilga olinishi bejiz emas. Chunki devon tuzgan shoirlar aksar hollarda oʻz davri adabiy muhitining rahnamosi boʻlib, adabiy jarayonga oʻz taʼsirini koʻrsatgan.

“Devoni Amir Umarxon”ning 17 nusxasi mavjudligini Mahbuba Qodirova va boshqa koʻplab tadqiqotchilar taʼkidlashgan. Xususan, mazkur olim tomonidan

devon 1972-yili katta kirish soʻzi bilan chop etildi. Ammo oʻsha yillari Amiriya oʻxshash shoh va shoirlarga munosabat yaxshi emas edi. Shu sabab devonni oʻrganish va uni ommalashtirish ishlari toʻxtab qoldi. Istiqlool sharofati bilan shoir faoliyatiga munosabat oʻzgardi. Amiriy shaxsiyati va ijodi haqidagi qaydlar shoirning oʻz devoniga yozgan debochada, “Majmuat ush-shuaro” tazkirasida va taixchilar tomonidan bitilgan koʻplab asarlarda uchraydi.

Ammo keyingi davr olimlari asarning 20 nusxasi borligini aytishadi. Oʻzbekiston va Turkiyadagi nusxalarning aksariyati (2 nusxadan tashqari) muallif vafotidan keyin kitobat qilingan. “Devon” ning 11 ta qoʻlyozma nusxasi OʻzFA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. Bu qoʻlyozmalarning bir qanchasi shoir hayotligi davrida koʻchirilgan. Jumladan, mazkur institutning qoʻlyozmalar fondida saqlanuvchi nusxalar 1840-yillarda, Alisher Navoiy adabiyot muzeyi kitob fondidagi qoʻlyozmalarning biri 1843-yil, biri 1869-yil kitobat qilingan.

Amiriy sheʼriyatiga boʻlgan qiziqish tobora ortib borgan. Uning asarlari qoʻshni mamlakatlarda ham sevib oʻqilgan, kitobat qilingan. Jumladan, 1882-yili Istanbulda, 1905-yili Toshkentda devonning bosma nashrlari yuzaga kelgan.

Amiriy devonining eng yaxshi qoʻlyozma nusxasi asosida Mahbuba Qodirova ijodkor sheʼrlarini “Devon” nomi bilan chop ettirib, unga ancha tafsiliy kirish soʻz ham yozdi. Shuningdek, Umarxon tomonidan yozilgan va hozirda Istanbul universitetida saqlanayotgan “Muhabbatnoma” nomli qoʻlyozma 1818—1819-yillar oraligʻida kitobat qilingan. Umarxon tirikligida koʻchirilgan “Muhabbatnoma”dan keyingi 2-nusxa 1820-yil kitobat qilingan. Qoʻlyozmaning 2ta oʻrnida asar Qoʻqonda, 1820-yil kitobat qilinganiga oid ishora mavjud, yaʼni hijriy 1235—1241-yillar sanalari qayd etiladi.

Amiriy devonidagi sheʼrlarni tahlil qilar ekanmiz, timsollar mohiyatidagi koʻpmaʼnolilik va botiniy mazmun alohida ahamiyat kasb etishining guvohi boʻlamiz. Bu fikrlarni shoirning «Devon»i debochasidagi quyidagi mulohazalari ham

tasdiqlaydi: «Bovujud muncha shugʻlu taraddud va bu miqdor tajassusi taaddud koʻngul ishqu muhabbat zavqigʻa rogʻib va zamirimda oshiqona, shoʻrangez gʻazallar shavqi gʻolib erdi. Parichehra gulandom shohidlari safhai orazida sunʻi qalami birla yozilgʻon xatti rayhoni gʻuborin va xol binafsha nuqtalari savodin mutolaa va mushohada birla haqiqat sarmashqin olur erdim... Va har gohkim, gulruksor sanamlar husnining oyinasikim, mahbubi bemisl jamolini(ng) jilvasi mazharidur, xayolim nazarigʻa manzur boʻlgʻoch tabʻim toʻtisi mushohada hayratgohida shirin ashʻorlar birla azal naqqoshining irodati xomasi chekkon badeʻ naqshlar ofarinonda surud qilur erdilar» [Amiriy, 2017:20-21].

Koʻrinadiki, muallif tomonidan yozilgan debochada unga kiritilgan sheʼrlarning yozilish tarixi, tartib berilishi hamda “soʻz gavharlarinining sarroflari” va zufununlar maslahatlari bilan devon tarzida kitobat qilinishiga doir fikrlar keltirilgan. Devondagi gʻazallarning radiflarida, asosan ,oʻzbekcha soʻzlarining qoʻllanilishiga alohida ahamiyat bergan.

Amiriy oʻzining noyob isteʼdodini Allohning unga bergan neʼmati deb biladi. Yaʼni, bir gʻazalida shoir: “Amir sheʼrlarini koʻrsang, sira taajjub qilma, bu nozik tabʻu salim zehn Haqning marhamatidandir”, - deydi:

*Taajjub qilmagʻil nogah Amir abyotini koʻrsang,
Bu tabʻi noziku zehni salim imdodi Rabdindur. [1, 114]*

Nusxalar oʻzaro qiyoslanganda, devonning har ikkala Toshkent nashri qisman oʻxshash, ammo Buxoro qoʻlyozmalar fondida saqlanuvchi toshbosma nusxa u ikkala nashrdan biroz farqli ekanligi maʼlum boʻldi. Shuningdek, Zebo Qobilovanning turkiy nashrida gʻazallar soni 318 ta, Lutfiy gʻazallariga 4ta muxammas, Navoiy gʻazallariga 24ta, Fuzuliy gʻazallariga 2ta, Zaliliyga 2ta, 5ta taʼbi xud muxammas, Nobiyga bitta, bitta muxammas-marsiya, 2ta musaddas, 2ta musaddasi tarjiʼband, 1ta musamman, 16ta tuyuq mavjud. Forsiy nashrida 142ta gʻazal, 18ta muxammas, 1ta musaddasi tarjiʼband, 1ta musaddasi tarkibband, 1ta musamman, Mahbuba Qodirova

nashrida esa 216 ta turkiy g`azal, 6ta muxammas, 3ta musaddas, 6ta tuyuq, bundan tashqari Navoiy g`azallariga bog`langan 15ta muxammasi, Lutfiy g`azallariga 4ta, Jomiy g`azallariga 2ta, Fuzuliy g`azallariga 2ta, Bedil g`azallariga 2ta, shuningdek, Zaliliy, Kamol, Nobiy g`azallariga muxammaslari mavjud.

Darhaqiqat, Amiriy bir qancha mazmundor tuyuqlar ham ijod qilgan. Shoir o`z devonidagi original tuyuqlari bilan an`anaviy bu janrga yangidan hayot bag`ishladi. Ijodkor tuyuqlarida kitobxonni chuqur mulohaza yuritishga undaydi:

1-

jadval

Zebo Qobilova nashri	Mahbuba Qodirova nashri
Ul pariy jonimg`a o`tlar yoqadur,	Ul pari jonimg`a o`tlar yoqadur,
Kuyganim ko`nglumga yaxshi yoqadur,	Kuygonim ko`nglig`a yaxshi yoqadur,
Ishqida har yon tushub jismimg`a chok,	Ishqida har yon tushub jaybing`a chok,
Telbamen, pirohanim be yoqadur.	Telbamen, piyrohanim beyoqadur.

2-

jadval

Zebo Qobilova nashri	Mahbuba Qodirova nashri
Navxatim zulfidin ochqan chog`da chin	Navxatim zulfidin ochg`on</b> chog`da chin

Munfaildur mushkdin ohuyi Chin	Munfaildur mushkdin ohuyi Chin
Chinu Mochin zulfi purtobidadur	Mochin zulfi purtobidadur
Bu so`zum yalg`on emasdur , barcha chin.	Bu so`zum yalg`on emastur , barcha chin.

Nashrlardagi tuyuqlar qiyosi natijasida shunday asos vujudga keldiki, Mahbuba Qodirova tomonidan tayyorlangan nashrda 6 ta, Zebo Qobilova nashrida esa 16ta tuyuq mavjud.

Muxammas janri ham shoir she'riy iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shoirning o'zi ham buyuk ustodlardan ilhomlanib, ularning asarlariga naziralar yozgani haqida keyinchalik, "Va gohi ustodlar devonlaridin biror shavqangiz va muhabbatomiz g'azaldin rangin va tahsin qofiya topar erdim, tatabbuda g'azal aytur erdim, filhol zavq-shavq fartidin muxammas bog'lar erdim", – deb yozgan edi.

Jumladan, o'zbekcha devonida 39 ta, 1370 misra; forsiy devonida 18 ta, 665 misra; jami 56 ta, 2035 misra muxammasi bizgacha yetib kelgan. Shulardan 5 tasi ta'bi xud muxammas, 1 tasi muxammas-marsiya, qolgani taxmis hisoblanadi. Amiriy o'zbek mumtoz adabiyotining Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Zaliliy, Nobiy, Bedil, Fuzuliy, Mushfiqiy kabi 10 ga yaqin mashhur ijodkorlarning g'azallariga taxmislar bog'lagan. Ular faqat son jihatdan emas, balki ma'no va badiiyatiga ko'ra ham Amiriy salohiyatini namoyon eta olgan.

Amiriy she'riyati o'ziga xos uslub, kutilmagan badiiy tasvir vositalari, badiiy detallarning turlicha jilvalanishi mahsulidir. Muxammaslar orqali shoirning teran tafakkur ko'lamini, betakror iste'dodining olmos qirralarini his etamiz.

Shoir muxammas uchun g'azallarni o'tkir did bilan tanlaydi. Har bir taxmisda ijodkor kechinmalarining mukammal takomil bosqichiga ko'tarilganining guvohi bo'lamiz. Amiriy shunchaki muxammas bog'lamaydi. U o'z tuyg'ulariga mushtarak hissiyotlarga duch kelganda, ularni yanada kengaytirish ehtiyojini sezgandagina manba tanlaydi. Shu sababdan, Amiriyning har bir taxmisi badiiy ijodning nodir namunasi darajasiga ko'tariladi. Shoir bog'lagan har bir misra uzukka qo'yilgan gavhar kabi o'rniga tushadi. Misralarning mantiqan izchilligi, so'zlarning bir-biridan o'sib chiqish tamoyillari, qofiya va radif, vazn bilan bog'liq musiqiylikka alohida e'tibor berganligi seziladi.

Xulosa qilib aytganda, Amiriy har ikala tildagi she'rlari vositasida turkiy va forsiy she'riyatning ilg'or an'analarini o'z ijodida rivojlantirib, o'zidan keyingi shoirlarga yetkazgani jihatidan bu ikki adabiyot o'rtasida ko'prik bo'lgan zullisonayn shoir hisoblanadi. Darhaqiqat, u o'z ustoz salafalaridan qanchalik ta'sirlangan bo'lsa, o'z zamondosh shoirlarini ham shunday ilhomlantira oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Amiriy. Devon.-T:Tamaddun (nashrga tayyorlovchilar: Qobilova Z., Davlatov O., Madaminov A., Ergashov O.).2017.
- 2.Amiriy. Tanlangan asarlar. T.: Tamaddun, 2017.
- 3.Boltaboev H. Mumtoz so'z qadri. T.: Fan, 2004.
- 4.Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari.-T.:Sharq,1999.-B.319.
- 5.Nodira. Devon. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 1968.
- 6.Nodira-Komila.Devon.-Xalq merosi,2001.
- 7.Qayumov A. Amiriy – Qo'qon adabiy muhitining asoschisi// “Amiriy va Qo'qon adabiy muhiti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani mateeriallari. - Toshkent:Tamaddun, 2017.
- 8.Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. T.: Fan, 1961.
- 9.Qobilova Z. Amiriyning adabiy merosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2010.

10.Qobilova Z. Bahorning qo'sh bayoti./ Alisher Navoiy va XX1 asr. Respublika ilmiy-nazariy anjumani, 2018.

11.Qobilova Z. va boshqalar. Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi. - Toshkent: Tamaddun, 2022.